

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
IYUN  
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Vafoqulova Go‘zal Ochilovna</b>	
PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHAXSIYATI TALQINI.....	7
<b>2. O’rinboyeva Pokiza Erkin qizi</b>	
“TOSHKENTNOMA”- VATANGNA MUXABBAT DOSTONI .....	9



## АДАБИЁТ

### PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHAXSIYATI TALQINI

Vafqulova Go‘zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik  
litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
Telefon +998(97)9252885

**Annotatsiya:** Maqolada «Yulduzli tunlar» romanida Zahiriddin Muhammad Boburning hayotdan o‘z shaxsiyatiga munosib o‘rin topish yo‘lida chekkan aziyatları, hayot-mamot kurashlarida ko‘rsatgan shaxsiy qahramonliklari tahlil etilgan

**Kalit so‘zlar:** tarixiy-biografik romanchilik, Javoharlal Neru, ichki kolliziya, ichki dramatizm.

«Yulduzli tunlar» romani Pirimqul Qodirov ijodida faxrli o‘rinni egallaydi. Adib bu romanni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy o‘zlashtirishning yangi bir namunasini ko‘rsatdi. O‘zbek adabiyotidagi tarixiy-biografik romanchilikni yangi bosqichga ko‘tardi. Asarda ulug‘ o‘zbek shoiri, adibi va mashhur podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatli hayoti, dolg‘ali faoliyati, hayotdan o‘z shaxsiyatiga munosib o‘rin topish yo‘lida chekkan aziyatları, hayot-mamot kurashlarida ko‘rsatgan shaxsiy qahramonliklari keng ko‘lamda tasvirlab berilgan.

Pirimqul Qodirov romanda Bobur obrazini yaratar ekan, bu benazir insonning jahoni shuhrati va buyuk ahamiyatini, hind xalqining unga bo‘lgan mehr-muhabbatini chuqur idrok etgan. Darhaqiqat, hind xalqining buyuk yo‘lboshchisi Javoharlal Neru Bobur shaxsiga va faoliyatiga yuqori baho berib: «Bobur dilbar shaxs, uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan. Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san’atda, hayotda, me’morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi»— deb yozgan edi. «Yulduzli tunlar» romani Javoharlal Neru so‘zlarining naqadar to‘g‘ri va asosli ekaniga jonli dalildir. Bobur Hindistonda sultanatni boshqarganda hukmdor bo‘lishning shon-shavkati bilan bir qatorda, adadsiz pushaymonliklarini, iztiroblarni, «xatolig‘»-u, «yuзи qarolig‘»larni boshidan kechirgan. Vatan sog‘inchi bilan o‘rtangan. Bu yo‘nalishda uning ajoyib, dilbar she’rlari ham bor. Yozuvchi qahramoni tabiatiga doir ana shunday tarixiy gavhar dalillarni saralab, badiiy yaxlitlik bilan nurlantiradi. Natijada, yozuvchining mahoratidan nurlangan harorat badiiy jozibaga aylanadi va butun asar hujayralariga ilqlik baxsh etadi.

Shu ma’noda romanda Bobur ruhi, ichki dunyosi, xayollari, orzu- armonlarining yuksak mahorat bilan tasvirlanganini ta’kidlash zarur. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim bilan Boburning nafas olishdayoq bir-birlarini tushunishlari, inining Xonzodabegimni nainki so‘z, balki yurak bilan anglay bilishi, shoirning havo emas ilhom bilan nafas olayotgan betakror sohir holatlardagi his-hayajonlar tasviri Pirimqul Qodirovning ruhiyat mazmunlarini ko‘rsatishdagi ustaligidan dalolat beradi. Yozuvchi Boburni ko‘p hollarda ichki kolliziya, ichki dramatizm, azobli, iztirobli, vaziyatlarda ko‘rsatadi. Qahramon o‘z-o‘zini ichdan tahlil etadi, qiyinayotgan savollarga shu yo‘sinda javob izlaydi va topadi. O‘zga qahramonlar bilan ba’zan so‘z orqali emas, ichdan, vujud tili orqali muloqotda bo‘ladi. Bu esa qahramon ruhiyatini teran yoritish imkonini beradi.

«Yulduzli tunlar» romanida Boburning shaxsiy hayoti tasviriga keragicha o‘rin berilgan. Binobarin, Bobur asarda haqiqiy inson sifatida jonlanadi. Yozuvchi uning insoniy fazilatlarini onasi Qutlug‘ Nigorxonim, opasi Xonzodabegim, suyukli xotini Mohimbegim va farzandi Humoyunga bo‘lgan mehr-muhabbati misolida yaqqol ochib bergen. Natijada, Bobur kitobxon ko‘z o‘ngida pok qalbli oqil inson sifatida gavdalananadi. «Humoyun, jigarim, – deydi Bobur og‘ir kasal bo‘lib



yotgan o‘g‘liga qarab, – sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og‘ir dardingni xudo sendan olib menga bersin».

Asarda Boburning xotin-qizlarga munosabati ham jonli va ishonarli aks etgan. U xotini Mohimbegimning aql-u farosati, farzandlarini mehr-oqibatlari qilib tarbiyalayotganiga tan berib: «Mohim, Siz mening benazir malagimsiz! Men shoh bo‘lsam ham ulug‘ qalbingiz o‘trusida qulmen!» – deydi. Bobur ajoyib me’mor Fazliddin bilan suhbatda: «Men... Samarqanddagi Bibixonim madrasasidek ulug‘ bir madrasanining taxini sizga chizdirmoqchi edim. Opa-singillarimizning qadrini boshimizga ko‘tarsak arzigay...», – deydi.

Shunday qilib, romanda voqealar davomida Bobur obrazining turli qirralari birin-ketin ochila boradi. Asarda tasvirlanishicha, Bobur zo‘r bir davlat tuzib, yurtni farovon, mamlakatni obod qilish yo‘lida harakat qilar ekan, ilm-fan, san’at va adabiyot ahliga har jihatdan yordam beradi. U aqlning qudratiga ishonadi.

Shu ma’noda «Yulduzli tunlar» yozuvchi burchini namoyon etgan yulduzli onlardir. Roman yuqorida e’tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siyemoni qaytadan kashf etilishi bilan o‘zbek adabiyotida mustahkam o‘rin egalladi.

#### **Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qodirov P.Yulduzli tunlar. –G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, Toshkent-2018.



“TOSHKENTNOMA”- VATANGNA MUXABBAT DOSTONI

O’rinboyeva Pokiza Erkin qizi  
Toshkent davlat transport universiteti

**Annotation:** The article provides scientific and theoretical views on the composition of the epic "Tashkentnoma", the gallery of images, the poet's word usage, the brilliance of verbal and spiritual arts, the combination of epic and lyrical elements, plot and integrity. It is said that Maqsud Shayxzoda's work is a lifelong work that meets the principles of modernity and history.

**Keywords:** Epic, image, weight, melody, talmeh, repetition, allegory, poetic thought, epic, lyric, plot and composition.

**Annotatsiya:** Maqolada “Toshkentnoma” dostonining kompozitsiyasi, obrazlar galeriyasi, shoirning so‘z ishlatalish mahorati, lafziy va ma’naviy san’atlar jilosi, epik va lirik elementlarning omuxtaligi, syujet va yaxlitlik kabi masalalar haqida ilmiy-nazariy fikr bildirilgan. Maqsud Shayxzodaning ijodi zamонавиylilik va tarixiylik tamoyillariga javob beruvchi umrboqiy ijod ekanligi haqida fikr aytilgan.

**Kalit so‘zlar:** Doston, obraz, vazn, ohang, talmeh, takrir, tashbeh, poetik fikr, epiklik, liriklik, syujet va kompozitsiya.

1957-yilda Maqsud Shayxzoda “Toshkentnoma” dostonini yaratdi. “Toshkentnoma”- tuyg‘ularning samimiyligi bilan ajralib turadigan asar. Bu doston vatanga muxabbat dostonidir. Maqsud Shayxzoda o‘z taqdirini o‘zbeklar va O‘zbekiston bilan bog‘lagani uchun Yaratganga shukrona aptyapti. Nazarimda, shoirning o‘zbek xalqiga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, dil izhorlari taftini satrlar sig‘dira olmayotgandek...

Yashadim 30 yil bunda chamasi

Bu yerda tug‘ilgan G‘afur va Oybek  
Umrimning boshlang‘ich mavsumlarida

Meni ardoqlashdi quchib og‘adek,  
Inilik ko‘rsatdim ta’zimlarimda, - deydi shoir faxr va iftixon bilan.

Haqiqatan ham shoir aytganidek, “Ko‘chat ko‘chib kelib ekilgan tuproq, Uning Vatanidir deyish to‘g‘riroq”. Shoir tarix va uning dolg‘ali sahifalari - Ozarbayjon va Toshkent...o‘zi haqida yozadi. Shu ma’noda, ko‘chat obrazi - avtobiografik xarakterga ega.

Shoir dostonda bir necha bor tarixga ekskurs qiladi: ya’ni Toshkentning 12 darvozasi, sharq-u g‘arbga ketgan yuk karvonlari, Toshkent qadimdan xalqlarni birlashtirgan hurmatli shahar bo‘lganligini faxr bilan tilga oladi.

O‘n ikki qopqadan, 12 yo‘ldan  
Bojgirga pul to‘lab kirgan karvonlar  
O‘n ikki qopqadan, 12 yo‘lga  
Jo‘nab ketar ekan yukli karvonlar,  
Janubga, Shimolga, o‘ngga va so‘lga  
Qatnab yurar ekan, yukli karvonlar.

“Shoirning poetik asarlarini o‘qir ekanmiz, ularning muallifi olim ekanligiga to‘la ishonamiz. Dunyoni ko‘ra bilishda, idrok etishda, tarix sahifalarini jonlantirishda bu, ayniqsa, ko‘zga tashlanadi. O‘zbek poeziyasining falsafiy chuqurligini, fikriy teranligini biz Shayxzoda ijodisiz tasavvur etolmaymiz”<sup>1</sup>.

Maqsud Shayxzoda “Toshkentnoma” da tashbeh, talmeh, takrir kabi qator lafziy va ma’naviy san’atlardan foydalanib, poetik fikrga jilo bergen. Chin-Mochin, Rum, Xo‘qand, Shosh, Eron, Turon, Iso, Iskandar, Kaykovus kabi tarixiy joy va tarixiy shaxslar - talmeh san’atini yaratgan.

Maqsud Shayxzoda dostonning XIV bobida esa 14 raqamini bir necha marotaba ishlataladi: 14 o‘ksiz, 14 bola, 14 millat, turli 14 nom... Shoir bu bobda takrir san’atini qo‘llab ma’no ta’sirchanligiga erishgan. “Badiiy takrorlarsiz she‘r musiqiyligini, ritmini, vaznni, bandini va qofiya san’atini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Badiiy takrorlar o‘quvchi qalbiga kuchli hissiy ta’sir qiladi. Takrorlar, shubhasiz, poetik tilning obrazli tasvir vositalari va she‘r tuzilishi unsurlari

1 .Olimjonova Hulkar. “Fikr torlari”. T.1968. B-15.



bilan uzviy birlikdagina o‘z vazifasini o‘tay oladi”.<sup>1</sup> Ikkinci jahon urushi davrida Toshkentga evakuatsiya qilingan turli millatlarning 14 nafar farzandini bag‘riga olib, ilm va kasb bergen, tarbiyalab voyaga yetkazgan, uyli-joyli qilgan temirchi Shoahmad aka va ayoli Bahri ayaning nomlari tilga olinadi. Bu satrlarda o‘zbekning bolajonligi, katta qalb egasi ekanligi, tantiligi, jo‘mardligi kabi xislatlari uning portpetini yaratgan. Lekin, tasvirda kutilmagan burlish qilinadiki, bu farzandlarning taqdiri oliyjanob insonlar bilan bog‘langanligi, hayotning bardavomliligi, yomonlikning ezgulik tomonidan muqarrar mahv etilishi, satrlar mohiyatiga singdirilgan. Badiiy adabiyotning hayotparvarligi, insonparvarligi mana shunday nuqtalarda namoyon bo‘ladi.

Shoir Toshkent tasvirida “Deydilar Toshkentda suv ichgan chumchuq, Qaytib kelar ekan Makkatullodan” deya ohori to‘kilmagan tashbehlarni qatorasiga tizib tashlaydi:

Shaxarlar boqiyidir , umr-o’tkinchi,  
Daryolar sobitdir , suvlar-o’tkinchi.  
Xar kim o‘z shaxrida qo‘ygan esdalik:  
Yo bino qo‘yishda katta ustalik,  
Yo shirin latifa yoki ixtiro,  
Yo daraxt , yo farzand, koprik , yo misra,  
Yo qo‘sinq , yo dori, maktab , cog‘chilik,

“Mavzuni ifodalash uchun Shayxzoda original obrazlar, rang-barang ohanglar, qofiyalar topadi. Ayniqsa, mazmun taqozosi bilan vaznlarning o‘zgarishi jozibalidir. Shaharning ko‘hna tarixini hikoya qilish uchun salobatli bir vazn qo‘llansa, bahor faslini, xiyobonlarni, o‘ychan oqshomlarni tasvirlash uchun o‘ynoqi, yengil vazndan foydalanadi shoir...”<sup>2</sup> Masalan: Bizning Toshkan, oshini deng, Qizning uchgan qoshini deng! Toshkan oshin, yeyman desang, Qalam qoshin, deyman desang -Gaping chiroylik! Hay-hay boraylik! Ta’bing chiroylik! Tur, tez boraylik! kabi tantanavor ohanglar, birda esa sokin va vazmin ohanglar bilan tasvirlar almashinib turadi. Bu ohanglar mavzu mohiyatidan kelib chiqqan. Go‘yo biri ikkinchisini taqozo etgan. Haqiqiy she’rlarda mavzu va ohang birga tug‘iladi.

Maqsud Shayxzodaning har bir asarida o‘ziga xos so‘z yaratish iqtidori bor: nonpaz, bozorbon, o‘choqbop, ko‘katzor, qadamdosh, hamqator, g‘oyaparvar, xushhidlik, ipaklashsin... Bunday so‘zlar dostoniga o‘zgacha ruh va fayz bag‘ishlay olgan. Munaqqid Ibrohim G‘afurov to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek: ” U so‘z ishlatganda, g‘oyatda katta jur’at bilan ishlatadi va bizga so‘zning avval ko‘rilmagan qirralarini namoyon qiladi. Shayxzodaning she’rlarida so‘zlar serquloch va serbo‘yoqdir”<sup>3</sup>.

“Toshkentnoma” 18 bobdan iborat. Shoirning boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi bu dostonda ham yagona voqeа tasviri yo‘q. Har bir bobda mavzular bor, lekin bu voqealar bir-birlari bilan salmoqli bir g‘oya orqali mantiqan bog‘lanadi. Bir qaraganda mavzular sochilgan durlarga o‘xshaydi. Lekin bu durlar bitta shodaning donalari, bitta ipga terilgan. Voqealar silsilasida Toshkent, toshkentliklar, shoir mantiqiy uzviylikni yaratgan. “Nizomiy vatani, Ganja o‘lkasi, O‘pkamga to‘ldirdi she’r havosin... Lekin shoirlikning nozik tolei, Kuldi Sirdaryoning havzalarida...”- deydi shoir.

Hazrat Navoiyning o‘pib qo‘lini  
O‘zbek vodiysida otimni surdim,  
Ijod karvonining uzoq yo‘lini-  
Aziz yo‘ldoshlar-la o‘toldim, yurdim.

Shoir bir she’rida “Ma’nosiga qarab o‘lchanadi umrlar,”-deb yozgan edilar. Yuqoridagi satrlar shoirning o‘z umridan qoniqish hosil qila bilganligini ifodalayapti. Haqiqatan ham, Maqsud Shayxzoda Nizomiy vatanida tug‘ildi, she’riyatning ohanrabosi uni o‘ziga tortdi, lekin O‘zbekistonda shoir bo‘lib tanildi. Elga suyukli bo‘ldi, qadrlandi. Ilk she’riy to‘plamlari “O‘n she’r”, “Undoshlarim”, “Uchinchi kitob”, “Jumhuriyat” 1930-yillarda nashr etilgan bo‘lsa, 1940-yillarda “Kurash nechun”, “Jang va qo‘sinq”, “Kapitan Gastello”, “Ko‘ngil deydiki” kabi to‘plamlari, 1950-yillarda yaratuvchanlik zavqini tarannum etgan “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu’la”, “Chorak asr devoni” kabi to‘plamlari kitobxonlarni rom qildi. Shoir 1944-yilda “Jaloliddin Manguberdi” dramasi, 1960-yilda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yaratdi. Pushkinning “Motsart va Salyeri” she’riy dramasini, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julyetta”

1 Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T.. 2002. B-431.

2 Olimjonova H. Fikr torlari. T. 1968.B.16.

3 G‘afurov I. “O‘rtoq shoir”. T.1975. B-8.



tragediyalarini, Mirtemir bilan hamkorlikda esa, Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asarini, Lermontov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat kabi jahon adabiyoti namoyandalari ijodidan ko‘plab she’riy guldstalarni o‘zbek kitobxonlariga taqdim qildi. Olim sifatida Alisher Navoiy ijodi haqida 30 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar yaratdi. Navoiy lirikasi bo‘yicha nomzodlik ishini himoya qildi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent lavozimlarida ishladi. Navoiy ijodi bo‘yicha doktorlik ishini ham tayyorlagan edilar.

Mustaqillik yillarda shoirning qilgan xizmatlari qadr topdi. Maqsud Shayxzoda 2001-yili “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. 6 jildlik “Asarlar”i nashr etildi.

Ikki xalq: ozarbayjon va o‘zbek xalqi farzandi, Maqsud Shayxzoda biz uchun shoir, dramaturg, tarjimon, olim, publisist, ustoz bo‘lib qolaveradi. Shoirning ta’biri bilan aytganda, bu ijod “mangulikcha tirikdir”.

Maqsud Shayxzoda ijodi jahon shoirlari bilan bo‘ylashadigan ijoddir.

### **Adabiyotlar:**

1. Olimjonova Hulkar. “Fikr torlari”. T.1968. B-15.
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T. 2002. B-431.
3. Olimjonova H. Fikr torlari. T. 1968.B.16.ффффффффф
4. G‘afurov I. “O‘rtoq shoir”. T.1975. B-8.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ**

**Масъул мұхаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000